



SUD DISKURSIDA LINGVISTIK NAZARIYA VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi,

*Renessans Ta’lim Universiteti, “Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
taxminanizomova@gmail.com +998888070998*

Annotatsiya: Sud jarayonlari insoniyat tarixida muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, huquqiy bahslar va adolatni ta’minlash jarayonining asosiy maydonidir. Sud zalida yuz beradigan nutqiy faoliyat — sud diskursi — o‘zining murakkabligi va ko‘p qatlamliligi bilan boshqa diskurs turlaridan ajralib turadi. Ushbu maqolada sud diskursini lingvistik nazariya asosida tahlil qilish, lingvistik vositalarning sud jarayonida qanday ishlatalishini ochib berish va bu tahlilning amaliy ahamiyatini yoritish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: sud diskursi, lingvistik nazariya, suda, advokat, pragmatika, tanqidiy diskurs, sotsiolingvistik tahlil, nutq aktlari, kommunikativ vositalar.

Аннотация: Судебное разбирательство является одним из важнейших социальных институтов в истории человечества и представляет собой главную арену правовых споров и процесса обеспечения правосудия. Дискурсивная деятельность, происходящая в зале суда, — судебный дискурс — отличается от других видов дискурса своей сложностью и многослойностью. Целью данной статьи является анализ судебного дискурса на основе лингвистической теории, выявление того, как языковые инструменты используются в судебном процессе, а также подчеркивание практической значимости этого анализа.

Ключевые слова: судебный дискурс, лингвистическая теория, судья, юрист, pragmatika, критический дискурс, социолингвистический анализ, речевые акты, коммуникативные средства.

Abstract: Court proceedings are one of the most important social institutions in human history, and are the main arena for legal disputes and the process of ensuring justice. The speech activity that takes place in the courtroom — judicial discourse — is distinguished from other types of discourse by its complexity and multi-layeredness. This article aims to analyze judicial discourse on the basis of linguistic theory, to reveal how linguistic means are used in the judicial process, and to highlight the practical significance of this analysis.

Keywords: judicial discourse, linguistic theory, judge, lawyer, pragmatics, critical discourse, sociolinguistic analysis, speech acts, communicative tools.

KIRISH. Diskurs deganda, umumiyl ma’noda, ma’lum kontekstda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyat sifatida tushuniladi [1]. Sud diskursi esa, sud jarayonlarida ishtirok etuvchi suda, advokat, prokuror, guvoh va boshqa subyektlarning o‘zaro nutqiy muloqot shaklidir. Bu

muloqot qat’iy institutsional doirada va huquqiy norma va qoidalar asosida shakllanadi [2]. Sud diskursi nafaqat qonun normalarini muhokama qilish, balki nutq orqali kuch va hokimiyatni ifodalash vositasidir [3]. Tilning bunday murakkab sferada qanday ishlashi lingvistik yondashuvlar orqali chuqur o‘rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sud diskursi borasida jahonning yetakchi olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning ishlariga asoslangan holda tadqiqot metodologiyasi quyidagi to‘rtta asosiy yondashuvga tayanadi: pragmatik tahlil, tanqidiy diskurs tahlili, sotsiolingvistik tahlil va huquqiy lingvistika.

1. **Pragmatik tahlil** — tilning kontekstdagi ishlatalishini, gapiruvchining niyatini va eshituvchiga yo‘naltirilgan ma’nolarni o‘rganadigan lingvistika yo‘nalishidir [4]. Sud diskursida esa bu yondashuv sudya, advokat va guvohlar o‘rtasidagi muloqotdagi nutq aktlari [5] va bilvosita ma’nolarni tahlil qilish uchun muhim hisoblanadi[6]. Ushbu tadqiqotda suddagi nutq aktlari: deklarativ (hukm chiqarish), direktiv (ko‘rsatma berish), va assertiv (faktni ifodalash) aktlari alohida tahlil qilindi. Ayniqsa, advokatlar tomonidan qo‘llaniladigan yuklangan savollar va bilvosita ma’nolar (masalan, “demak, siz jinoyat sodir bo‘lganida uyda emasmidingiz?” kabi) tilshunos Grays’ning kooperativ tamoyillariga (maxsus bilvosita ma’nolar) zid ravishda ishlatalishi aniqlandi [6].

2. **Tanqidiy diskurs tahlilida** Norman Ferklof(1995) modeli asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, har bir nutqiy harakat ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq va hokimiyat munosabatlarini ifodalarydi. Sud zalida bu munosabat sudya va ishtirokchilar o‘rtasidagi ierarxiya, til orqali beriladigan buyruqlar va norasmiy mulohazalar shaklida namoyon bo‘ladi. Tanqidiy diskurs tahlili yordamida advokat va prokurorlarning guvohga nisbatan bosim o‘tkazish uslublari, hokimiyatni mustahkamlovchi til birliklari (masalan, “Fakt shuki...”, “Sud buni qabul qilmaydi” kabi) o‘rganiladi [7]. Ushbu metod ijtimoiy adolat va til o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi.

3. **Sotsiolingvistik metod** ishtirokchilarning ijtimoiy holati va ularning til ishlatalish uslublari o‘rtasidagi bog‘liqliknki o‘rganishga qaratiladi. Labov (1972) nazariyasiga ko‘ra, til ijtimoiy sinf, jins, millat va mavqega qarab farqlanadi. Sud diskursida guvohlarning rasmiylik darajasi past, javoblari qisqa, va ko‘pincha ehtiyyotkorlik bilan berilishi kuzatilgan. Advokat va prokurorlar esa uzoq, murakkab va rasmiy iboralar bilan nutq quradilar. Bu nutqiy tafovutlar adolatga bevosita ta’sir etadi [8]. Shuningdek, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi nutqiy strategiyalardagi farqlar ham tadqiqotchilar tomonidan alohida qayd etilib o‘tilgan.

4. **Huquqiy lingvistika.** Huquqiy lingvistika yo‘nalishi suddagi huquqiy matn va nutqlarning tilshunoslik asoslarini tahlil qiladi. Sud hujjatlari, qonun matnlari, advokatlarning chiqishlari va sud qarorlaridagi til strukturasi o‘rganildi. Ayniqsa, qonuniy nutqning murakkabligi, rasmiy til birliklarining ko‘pligi va aniq bo‘lmagan ifodalarning ko‘plab uchrashi tahlil qilindi [9]. Huquqiy lingvistika sud tarjimonlari va huquqshunoslar uchun muhim nazariy asos yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Jon Rojers Sirl nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra, sud diskursida asosan quyidagi aktlar uchraydi: deklarativ (sud qarorlarini e’lon qilish), direktiv (ko‘rsatma berish), va assertiv (fakt yoki guvohlik bayon qilish). Masalan, sudyaning “Sud

majlisi yopiq deb e’lon qiladi” yoki “Guvoh, o‘rningizdan turing” kabi buyruqlar direktiv aktlar sifatida ko‘rsatilgan. Advokatlar va prokurorlar esa savollar orqali bilvosita aktlarni faol qo‘llaydilar. Ba’zi hollarda savollar manipulyatsion maqsadga xizmat qilgan: ular guvohni chalg‘itish, unga bosim o‘tkazish yoki javobni kerakli yo‘nalishda shakllantirish uchun ishlatilgan. Masalan, “Agar siz uni ko‘rgan bo‘lsangiz, nega hech kimni chaqirmadingiz?” — bu savol ichida ayblov mavjud bo‘lib, Grays tomonidan taklif qilingan kooperativ tamoyillarning buzilishi sifatida ko‘riladi. Shuningdek, pragmatik tahlilda bilvosita ma’no keng qo‘llanilishi aniqlangan. Bu usul ko‘proq prokurorlar tomonidan ishlatilgan bo‘lib, guvohni yolg‘on gapiryapti degan tasavvur hosil qilish uchun qo‘llanilgan [10]. Ferklof modeliga tayangan diskurs tahlili sud diskursida ideologik nazorat va ijtimoiy hokimiyat qanday til orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Misol uchun, sudyva va advokatlarning nutqida tez-tez uchraydigan “sud qaroriga binoan”, “huquqiy asosda”, “qonun talablariga muvofiq” kabi iboralar diskursga rasmiylik va qonuniylikni beradi. Shuningdek, guvoh va ayblanuvchilar nutqi ko‘pincha past darajadagi ijtimoiy kuchga ega ekanini ko‘rsatadi: ular qisqa, ehtiyyotkorlik bilan, ko‘pincha so‘z tanlashda noaniqliklar bilan javob berishadi. Masalan, “Balki”, “Anig‘ini bilmayman”, “Eslolmadim” kabi iboralar diskursdagi hokimiyat tafovutini ko‘rsatadi [11]. Tahlilda aniqlanishicha, advokatlar til vositasida voqeani muayyan rakursdan taqdim etishga harakat qilishadi. Masalan, “u jinoyat sodir qilganidan keyin qochdi” degan ibora “agar jinoyatni u sodir qilmagan bo‘lsa, nega qochdi?” degan shubhani uyg‘otadi. Bu esa tilning reallikni konstruktsiyalash vositasi ekanini ko‘rsatadi [7]. Tilshunoslar Labov, Conley va O’Barr ishlariga asoslangan tahlil sud ishtirokchilari o‘rtasidagi nutq tafovutlarini aniqlagan. Sudyalar, prokurorlar va advokatlarning nutq uslubi murakkab, rasmiy, terminologik jihatdan boy bo‘lsa, guvohlar va ayblanuvchilarning nutqi oddiy, qisqa va hissiyotga boy ekanligi qayd etildi. Tahlilda ayollarning erkaklarga nisbatan ko‘proq ehtiyyotkor va yumshoq ifodalarni qo‘llashi kuzatildi. Masalan, ayol guvohlar “Menimcha”, “balki”, “ehtimol” kabi iboralardan erkak guvohlarga nisbatan ko‘proq foydalangan. Bu gender va til o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ko‘rsatadi [12]. Shuningdek, sotsial maqomi pastroq bo‘lgan shaxslar sud jarayonida tilni himoya vositasi sifatida emas, xavf manbai sifatida qabul qilishadi. Ularning javoblari ko‘proq mudofaa ohangida bo‘lib, rasmiy savollarga “ha”, “yo‘q” bilan kifoyalanishadi [13]. Tadqiqotchi Tiersma nazariyasi asosida olib borilgan tahlil suddagi rasmiy matnlarning — masalan, sud qarorlari, advokat chiqishlari va prokuror nutqlari — murakkab, ko‘p qatlamlili va tushunilishi qiyin bo‘lgan til strukturasi bilan ajralib turishini ko‘rsatadi. Ko‘plab matnlarda passiv gaplar, noaniq predikatlar (“zarur deb topildi”, “tushunarsiz bo‘ldi”) ishlatilgan. Shuningdek, sud matnlarining an’anaviy va konservativ til qurilishiga asoslanishi sababli, ularni oddiy fuqaro yoki guvoh uchun tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Bu esa til vaadolat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi [9].

Ushbu natijalar tilning sud diskursida qanday murakkab kommunikativ vosita sifatida ishlatilishini yaqqol ko‘rsatadi. Til faqat axborot uzatish emas, balki hokimiyatni ifodalaish, manipulyatsiya qilish, psixologik bosim o‘tkazish va reallikni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Pragmatik jihatdan qaralganda, sud jarayonida tilning har bir birligi o‘z ichida ma’lum strategik ma’no tashiydi. Tilshunos Grays tomonidan ta’riflangan “hamkorlik

tamoyili”(*cooperative principle*) sudda ko‘pincha buziladi, ayniqsa guvohlar savollarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita yoki chalg‘ituvchi tarzda javob berishga majbur bo‘lishganda. Diskurs tahlili sud diskursida ideologik tuzilmalar qanday ishlashini ko‘rsatadi. Sudya va prokurorlar nutqida mavjud bo‘lgan qonuniy leksik birliklar ishtirokchilarda rasmiylik, obro‘ va hokimiyat hissini kuchaytiradi. Shu orqali til orqali psixologik ustunlik hosil qilinadi [14]. Sotsiolingvistik tahlil til orqali sotsial ierarxiya qanday namoyon bo‘lishini ochib beradi. Ayollarning ehtiyyotkor nutqi, past ijtimoiy maqomdagi shaxslarning ishonchsiz gaplari ularning suddagi pozitsiyasini ham ifodalaydi [8]. Huquqiy lingvistika esa qonun tilining murakkabligi va uni soddalashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Tushunilishi qiyin, passiv tuzilgan huquqiy matnlar sud ishtirokchilarining adolatga to‘liq erishishiga to‘sinqinlik qilishi mumkin [15]. Bu tahlillar natijasida aniqlanishicha, lingvistik bilimlar suddagi barcha ishtirokchilar — advokat, guvoh, tarjimon va hatto sudya uchun ham zarur. Ayniqsa, ko‘p tilli sudlarda til tafovutlarini to‘g‘ri tahlil qilish orqali xatoliklar kamayadi va adolat oshadi.

Lingvistik nazariyaning amaliy ahamiyati.

Lingvistik nazariyaning sud diskursidagi amaliy ahamiyati beqiyos bo‘lib, u bir qator muhim sohalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Avvalo, sud jarayonlarida ishtirok etuvchi guvohlar va ayblanuvchilar nutqiy manipulyatsiyalardan himoyalanishi uchun lingvistik tahlil vositalari muhim ahamiyat kasb etadi; bu, o‘z navbatida, sud adolatining ta‘minlanishiga bevosita xizmat qiladi. Shuningdek, sud tili va nutq strategiyalarini chuqur anglash orqali advokatlar hamda prokurorlar nutqiy uslublarini yanada samaraliroq qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Lingvistik yondashuvlar ularning savol berish, javobni yo‘naltirish yoki strategik gapirish kabi ko‘nikmalarini ilmiy asosda rivojlantiradi. Bundan tashqari, ko‘p tilli sud jarayonlarida tarjimonlar uchun sud diskursining pragmatik va sintaktik xususiyatlarini bilish juda muhim: bu bilim tarjimalardagi xatolarni kamaytirib, to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi. Ayniqsa, kontekstual ma’nolar va nutq aktlarining tarjimada to‘g‘ri aks ettirilishi uchun lingvistik tahlil vositalari zarur. Nihoyat, lingvistik yondashuvlar sud tizimida ishlatiladigan rasmiy nutqning aniq, lo‘nda va tushunarli bo‘lishi uchun nutq standartlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Tiersma va Solan ta’kidlaganidek, lingvistik nazariya asosida ishlab chiqilgan nutq standartlari huquqiy aloqa va tushunishni yengillashtirib, sud ishtirokchilari o‘rtasida samarali muloqotni ta‘minlaydi. Shu tariqa, lingvistik tahlil nafaqat nazariy, balki huquqiy amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Sud diskursining lingvistik tahlili uning murakkab kommunikativ tuzilmasini, ijtimoiy quvvat taqsimotini va nutqiy strategiyalarni ochib beradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sud zalida til nafaqat axborot uzatish, balki hokimiyatni mustahkamlash, manipulyatsiya qilish va haqiqatni muayyan shaklda taqdim etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pragmatik tahlil orqali nutq aktlari va bilvosita ma’nolar aniqlanib, guvohlar va advokatlar o‘rtasidagi til o‘yinlari fosh etildi. Diskurs va sotsiolingvistik yondashuvlar sud ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy va gender tafovutlarini ko‘rsatdi. Huquqiy lingvistika esa qonuniy matnlarning soddalashtirilishi zaruratini yoritdi. Lingvistik nazariya sud adolatini ta‘minlash, tarjimalardagi xatolarni kamaytirish va huquqiy kommunikatsiyani aniqlashtirishda muhim vosita bo‘lib

xizmat qiladi. Shu bois sud jarayonlarini tahlil qilishda lingvistik yondashuvlarning ilmiy va amaliy ahamiyati beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gee, J. P. (2014). *An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method* (4th ed.). Routledge.
2. Cotterill, J. (2003). Language and Power in Court: A Linguistic Analysis of the O.J. Simpson Trial. Palgrave Macmillan.
3. Gibbons, J. (2003). Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. Blackwell.
4. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
5. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press.
6. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), *Syntax and Semantics*, vol. 3. Academic Press.
7. Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Longman.
8. Conley, J. M., & O’Barr, W. M. (1998). *Just Words: Law, Language, and Power*. University of Chicago Press.
9. Tiersma, P. M., & Solan, L. M. (2012). *The Oxford Handbook of Language and Law*. Oxford University Press.
10. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
11. Heffer, C. (2005). *The Language of Jury Trial: A Corpus-Aided Analysis of Legal-Lay Discourse*. Palgrave Macmillan.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
13. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic Patterns*. University of Pennsylvania Press.
14. Foucault, M. (1977). *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. Pantheon Books.
15. Tiersma, P. M. (1999). *Legal Language*. University of Chicago Press.